

## O'ZBKISTON JANUBIDA KUNGABOQAR O'SIMLIGI PARAZIT NEMATODA TURLARINING TURKUMLAR VA OILALAR BO'YICHA TAQSIMLANISHI

**Muxiddinova Muxlisa Muxiddin qizi**

*Termiz davlat universiteti magistranti*


*muxlisamuxiddinova989@gmail.com*

Bugungi kunda dunyoda ishlab chiqishni kengaytirish, o'simliklarga arar keltiruvchi fitopatogenlarni aniqlash va o'simliklarni ulardan himoya qilish hamda ularga qarshi kurashishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish biologiya fani oldida turgan dolzarb masalardan biri hisoblanadi.

Olib borilgan tadqiqotlar davomida Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari sharoitida kungaboqar o'simligi ildiz va ildiz atrofidagi tuproqda 12 tur haqiqiy parazit fitonematodalar (*Tylenchorhynchus nudus*, *Tylenchorhynchus brassicae*, *Tylenchorhynchus vulgaris*, *Rotylenchus reniformis*, *Rotylenchus robustus*, *Helicotylenchus dihystra*, *Helicotylenchus multicinctus*, *Pratylenchus pratensis*, *Pratylenchus thornei*, *Pratylenchus zae*, *Pratylenchus brachyurus*, *Ditylenchus dipsaci*) tarqalganligi aniqlandi.

Kungaboqar agrotsenozlarida aniqlangan fitoparazitlar turlari turkumlar bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi: Tylenchida turkumiga oid 12 ta tur. (*Tylenchorhynchus nudus*, *Tylenchorhynchus brassicae*, *Tylenchorhynchus vulgaris*, *Rotylenchus reniformis*, *Rotylenchus robustus*, *Helicotylenchus dihystra*, *Helicotylenchus multicinctus*, *Pratylenchus pratensis*, *Pratylenchus thornei*, *Pratylenchus zae*, *Pratylenchus brachyurus*, *Ditylenchus dipsaci*).

Kungaboqar agrotsenozlarida aniqlangan fitoparazitlar turlar oilalar bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi: Dolichodoridae oilasiga mansub 3 ta tur (*Tylenchorhynchus nudus*, *Tylenchorhynchus brassicae*, *Tylenchorhynchus vulgaris*), Rotylenchidae oilasiga oid 2 ta tur (*Rotylenchus reniformis*, *Rotylenchus robustus*), Hoplolaimidae 2 ta tur (*Helicotylenchus dihystra*, *Helicotylenchus multicinctus*), Pratylenchidae oilasiga mansub 4 ta tur (*Pratylenchus pratensis*, *Pratylenchus thornei*, *Pratylenchus zae*, *Pratylenchus brachyurus*), Anguinidae oilasiga mansub 1 ta tur (*Ditylenchus dipsaci*).



**1-rasm. Aniqlangan fitoparazitlar turlarining oilalar bo'yicha taqsimlanishi.**

Tadqiqot davomida parazitlar populyatsiya zichligi kam bo'lganligi sababli kuzatilgan o'simliklarda yetkazilishi mumkin bo'lgan zararlar sezilarsiz. Biroq ularning zich populyatsiyada qayd etilishi hosildorlikka sezilarli ta'sir etishi mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkunki, olingan natijalardan kelib chiqib, kungaboqar (*Helianthus annuus*) o'simligining o'sishi va rivojlanishi shuningdek, hosildorligini oshirish, ularni fitogelmintozlardan himoya qilishda profilaktik va agrotexnik chora tadbirlarni qo'llash lozim deb topildi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Тулаганов А.Т., Усманова А.З. Фитонематоды Узбекистана // Кн.5.ч.1.- Ташкент, 1975-370 с.
- 2.Тулаганов А.Т., Усманова А.З.Фитонематоды Узбекистана // Ташкент: Фан, 1978-427 с.
3. Парамонов А.А. Основы фитогельминтологии // Наука, 1962, Т.1., -480с.
4. Парамонов А.А. Основы фитогельминтологии //-М.: Наука, 1970. Т. III.,- 255 с.